

RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLAR EKSPORTINING NAZARIY ASOSLARI

Raximboyev Baxtiyor Ravshan o'g'li
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya
universiteti magistratura talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada rivojlanayotgan mamlakatlar eksportining nazariy asoslari, eksport faoliyatining iqtisodiy o'sish va milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishdagi o'rni tahlil qilingan. Shuningdek, xalqaro savdo nazariyalari, jumladan, mutlaq va nisbiy ustunlik nazariyalari, omillar bilan ta'minlanganlik konsepsiyasi hamda zamonaviy eksportni rivojlantirish yondashuvlari ko'rib chiqilgan. Rivojlanayotgan mamlakatlarning eksport salohiyatini oshirishga ta'sir etuvchi omillar va ularning jahon bozoridagi integratsiyalashuv jarayonlari ilmiy jihatdan yoritilgan.

Kalit so'zlar: rivojlanayotgan mamlakatlar, eksport, xalqaro savdo, mutlaq ustunlik nazariyasi, nisbiy ustunlik nazariyasi, eksport salohiyati, raqobatbardoshlik, iqtisodiy o'sish, tashqi savdo, jahon bozori.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ЭКСПОРТА РАЗВИВАЮЩИХСЯ СТРАН

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические основы экспорта развивающихся стран, а также анализируется роль экспортной деятельности в обеспечении экономического роста и повышении конкурентоспособности национальной экономики. Кроме того, изучены теории международной торговли, включая теории абсолютных и сравнительных преимуществ, концепцию обеспеченности факторами производства, а также современные подходы к развитию экспорта. С научной точки зрения освещены

факторы, влияющие на повышение экспортного потенциала развивающихся стран, и процессы их интеграции в мировой рынок.

Ключевые слова: развивающиеся страны, экспорт, международная торговля, теория абсолютных преимуществ, теория сравнительных преимуществ, экспортный потенциал, конкурентоспособность, экономический рост, внешняя торговля, мировой рынок.

THEORETICAL FOUNDATIONS OF EXPORTS IN DEVELOPING COUNTRIES

Abstract. This article examines the theoretical foundations of exports in developing countries and analyzes the role of export activities in promoting economic growth and enhancing the competitiveness of national economies. It also reviews international trade theories, including the theories of absolute and comparative advantage, the factor endowment concept, and modern approaches to export development. Furthermore, the study highlights the factors influencing the enhancement of export potential in developing countries and their integration processes into the global market.

Keywords: developing countries, exports, international trade, absolute advantage theory, comparative advantage theory, export potential, competitiveness, economic growth, foreign trade, global market.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi va xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlarining jadallashuvi sharoitida eksport faoliyati rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Eksport hajmining oshishi nafaqat valyuta tushumlarini ko'paytirish, balki ishlab chiqarish samaradorligini yuksaltirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, texnologik yangilanishlarni jadallashtirish hamda milliy iqtisodiyotning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun eksportni rivojlantirish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki ushbu davlatlar ko‘pincha ichki bozor hajmining cheklanganligi, kapital va texnologiyalar yetishmasligi kabi muammolarga duch keladilar. Shu sababli eksport salohiyatidan samarali foydalanish iqtisodiy o‘rishni rag‘batlantirishning muhim vositasi sifatida qaraladi. Ayniqsa, sanoat mahsulotlari va yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar eksportini kengaytirish iqtisodiyotning tarkibiy diversifikatsiyasini ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Eksportning iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni xalqaro savdo nazariyalarida ham keng yoritilgan. Adam Smitning mutlaq ustunlik nazariyasi, Devid Rikardoning nisbiy ustunlik nazariyasi hamda Xeksher–Olinning omillar bilan ta‘minlanganlik nazariyasi mamlakatlarning xalqaro mehnat taqsimotidagi o‘rnini va eksport ixtisoslashuvining iqtisodiy samaradorligini tushuntirib beradi. Zamonaviy iqtisodiy yondashuvlar esa innovatsiyalar, texnologik taraqqiyot va davlatning eksportni qo‘llab-quvvatlash siyosatini eksport rivojlanishining asosiy omillari sifatida baholaydi.

Mazkur maqolaning maqsadi rivojlanayotgan mamlakatlar eksportining nazariy asoslarini o‘rganish, xalqaro savdo nazariyalarining eksport faoliyatiga ta‘sirini tahlil qilish hamda eksport salohiyatini oshirishning zamonaviy yondashuvlarini ilmiy jihatdan yoritishdan iborat.

Rivojlanayotgan mamlakatlar eksportining nazariy va amaliy jihatlar mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Xalqaro savdo va eksportning iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rnini ilmiy asoslashda klassik iqtisodiy nazariyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, A. Smit mutlaq ustunlik nazariyasini, D. Rikardo esa nisbiy ustunlik nazariyasini ishlab chiqqan bo‘lib, ular mamlakatlarning xalqaro mehnat taqsimotidagi ixtisoslashuvi va eksport faoliyatining samaradorligini tushuntirib bergan. Keyinchalik E. Xeksher va B. Olin tomonidan ishlab chiqilgan omillar bilan ta‘minlanganlik nazariyasi mamlakatlarning eksport tarkibi ishlab chiqarish omillari bilan ta‘minlanganlik darajasiga bog‘liqligini asoslab berdi.

Zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda M. Porterning milliy raqobat ustunligi konsepsiyasi, P. Krugman va E. Helpmanlarning yangi savdo nazariyalari eksportning innovatsiyalar, texnologik rivojlanish va miqyos samarasi bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatib berdi. Ushbu ilmiy yondashuvlar rivojlanayotgan mamlakatlarning jahon bozoridagi raqobatbardoshligini oshirish mexanizmlarini tadqiq etishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Rossiyalik iqtisodchi olimlar orasida xalqaro savdo va eksportni rivojlantirish masalalari S. Glazyev, A. Bulatov, I. Faminskiy va V. Obolenskiylarning ilmiy ishlarida keng yoritilgan. Ularning tadqiqotlarida eksportni diversifikatsiya qilish, tashqi savdo siyosati va eksport salohiyatini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan A. Vahobov, N. Jo'rayev, Sh. Shodmonov, A. Alimuhamedov va boshqa tadqiqotchilar tomonidan mamlakat eksport salohiyatini oshirish, tashqi savdo siyosatini takomillashtirish hamda eksportni rag'batlantirish mexanizmlariga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Ularning ilmiy ishlari O'zbekiston iqtisodiyotining jahon xo'jalik tizimiga integratsiyalashuvi va eksport tarkibini diversifikatsiya qilish masalalarini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, rivojlanayotgan mamlakatlar eksportining nazariy asoslari va zamonaviy rivojlanish tendensiyalarini, ayniqsa global qiymat zanjirlari, raqamli iqtisodiyot va innovatsion rivojlanish sharoitidagi o'zgarishlarni chuqur o'rganish dolzarb ilmiy masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Xalqaro savdo va eksport iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillaridan biri sifatida iqtisodiy fanlarda uzoq yillar davomida tadqiq etib kelinmoqda. Eksportning nazariy asoslari klassik va zamonaviy xalqaro savdo nazariyalari orqali shakllangan bo'lib, ular mamlakatlarning jahon xo'jaligidagi o'rni va ixtisoslashuv yo'nalishlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Eksportning nazariy asoslarini yoritishda dastlabki muhim yondashuvlardan biri Adam Smit tomonidan ilgari surilgan mutlaq ustunlik nazariyasi hisoblanadi. Ushbu nazariyaga ko'ra, mamlakatlar boshqa davlatlarga nisbatan kamroq xarajat bilan ishlab

chiqarishi mumkin bo'lgan mahsulotlarni eksport qilishi va nisbatan yuqori xarajat talab qiladigan mahsulotlarni import qilishi maqsadga muvofiqdir. Mazkur yondashuv xalqaro mehnat taqsimoti va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Keyinchalik Devid Rikardo tomonidan ishlab chiqilgan nisbiy ustunlik nazariyasi xalqaro savdo nazariyasining rivojlanishida yangi bosqichni boshlab berdi. Mazkur nazariyaga ko'ra, mamlakat mutlaq ustunlikka ega bo'lmagan taqdirda ham, boshqa mahsulotlarga nisbatan kamroq alternativ xarajat bilan ishlab chiqariladigan mahsulotlarga ixtisoslashishi orqali xalqaro savdodan foyda olishi mumkin. Ushbu nazariya rivojlanayotgan mamlakatlarning tabiiy resurslar, mehnat resurslari yoki qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportiga ixtisoslashuvini tushuntirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Eksportning zamonaviy nazariy asoslari orasida Xeksher–Olin modeli alohida o'rin egallaydi. Ushbu model mamlakatlarning eksport tarkibi ishlab chiqarish omillari – mehnat, kapital va tabiiy resurslar bilan ta'minlanganlik darajasiga bog'liqligini ta'kidlaydi. Mehnat resurslariga boy rivojlanayotgan mamlakatlar, odatda, mehnat talab qiluvchi mahsulotlar eksportiga ixtisoslashadi, kapital va texnologiyalarga boy mamlakatlar esa kapital talab qiluvchi mahsulotlar ishlab chiqarishda ustunlikka ega bo'ladi.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab xalqaro savdo nazariyalarining yangi yo'nalishlari shakllandi. Xususan, M. Porterning milliy raqobat ustunligi nazariyasi mamlakatlarning eksport muvaffaqiyati innovatsiyalar, texnologik taraqqiyot, malakali ishchi kuchi va samarali davlat siyosati bilan belgilanishini asoslab berdi. P. Krugman tomonidan ishlab chiqilgan yangi savdo nazariyasi esa miqyos samarasi va mahsulot differensiallashuvi xalqaro savdo hajmining oshishiga ta'sir ko'rsatishini ko'rsatib berdi.

Hozirgi kunda rivojlanayotgan mamlakatlar eksportini rivojlantirishda global qiymat zanjirlarida ishtirok etish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish muhim omillardan biri hisoblanadi. Shu sababli ko'plab rivojlanayotgan davlatlar xomashyo

eksportidan tayyor va qayta ishlangan mahsulotlar eksportiga bosqichma-bosqich o'tishga intilmoqda. Umuman olganda, xalqaro savdoning klassik va zamonaviy nazariyalari rivojlanayotgan mamlakatlar eksport siyosatini shakllantirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi hamda ularning jahon iqtisodiyotidagi raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, eksport rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy o'sishini ta'minlash, milliy ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvini jadallashtirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Xalqaro savdoning klassik va zamonaviy nazariyalari mamlakatlarning eksport ixtisoslashuvi, raqobat ustunliklarini shakllantirish va tashqi savdo siyosatini ishlab chiqishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, rivojlanayotgan mamlakatlarning aksariyati eksport tarkibida xomashyo va past qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ulushining yuqoriligi bilan tavsiflanadi. Bu esa jahon bozoridagi narxlar o'zgarishiga yuqori darajada bog'liqlikni yuzaga keltiradi hamda eksport daromadlarining barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli eksport tarkibini diversifikatsiya qilish va yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar eksport salohiyatini oshirish maqsadida quyidagi takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- eksport tarkibini diversifikatsiya qilish va yuqori qo'shilgan qiymatga ega tayyor mahsulotlar eksporti ulushini oshirish;
- eksportyor korxonalarni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish;
- ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalarni joriy etish va mahsulot sifatini xalqaro standartlarga moslashtirish;
- transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish hamda eksport xarajatlarini kamaytirish;

- xalqaro bozorlar va global qiymat zanjirlariga integratsiyalashuv darajasini oshirish;
- eksport faoliyati uchun zarur bo'lgan malakali kadrlarni tayyorlash va ularning kompetensiyalarini rivojlantirish.

Xulosa qilib aytganda, rivojlanayotgan mamlakatlarda eksportni samarali rivojlantirish iqtisodiy o'sish sur'atlarini jadallashtirish, tashqi savdo balansini yaxshilash va milliy iqtisodiyotning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, eksportni rag'batlantirishga qaratilgan kompleks davlat siyosatini amalga oshirish barqaror iqtisodiy rivojlanishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bulatov A.S. *Мировая экономика и международные экономические отношения*. – Москва: КНОРУС, 2020.
2. Faminskiy I.P. *Международные экономические отношения*. – Москва: Экономика, 2004.
3. Glazyev S.Yu. *Мировой экономический кризис и перспективы развития мировой экономики*. – Москва: Экономика, 2012.
4. Heckscher E.F. The Effect of Foreign Trade on the Distribution of Income // *Ekonomisk Tidskrift*. – 1919. – Vol. 21. – P. 497–512.
5. Jo'rayev N.J. *Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2013.
6. Krugman P.R., Obstfeld M., Melitz M.J. *International Economics: Theory and Policy*. – 11th ed. – Boston: Pearson Education, 2018.
7. Shodmonov Sh.Sh., G'afurov U.V. *Iqtisodiyot nazariyasi*. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2010.
8. Vahobov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Muminov N.G. *Xalqaro iqtisodiy munosabatlar*. – Toshkent: Sharq, 2014.